

MILLIY HISOBCHILIK VA MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR**Abdusattororov Sunnat**

Termiz davlat universiteti talabasi.

Hojiqulova Feruza

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15670234>

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz miliy hisobchilik tushunchasini paydo bolishi, mohiyati, shuningdek uni hisoblashda qollaniladigan makroiqtisodiy korsatkichlar bilan tanishamiz

Kalit so'zlar: milliy hisobchilik, yaim, yamd, shatd, sof ichki mahsulot, sof milliy daromad.

Milliy hisobchilik deganda, mamlakat miqyosida bo'layotgan iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi, bu ko'rsatkichlarni hisoblash metodologiyasi va usullari tushuniladi. Milliy hisobchilik, dastlabki davrlarda (XVII-XIX asr) asosan mamlakat miqyosida yaratilgan milliy daromadni hisoblashga qaratilgan edi. Milliy hisoblar tizimi bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotga ega rivojlangan mamlakatlarda vujudga keldi. Dastlab bu mamlakatlarda hisobot tizimiga zarurat unchalik sezilmadi. Lekin, ilg'or texnologiyalarning rivojlanishi, kapitalistlarning yuqori darajada foyda olishga intilishlari tovarlar ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasida nomutanosibliklarni keltirib chiqara boshladi. Natijada, talab va taklif o'rtasidagi muvozanat buzilib, iqtisodiy inqirozlar sodir bo'la boshladi. Bunday inqirozlar XIX-asrning oxiri va XX asrning boshlariga kelib bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotga ega mamlakatlarni qamrab ola boshladi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar sifatida milliy mahsulot, milliy daromad, iste'mol, jamg'arma (kapital qo'yilmalar) va hokazolar hisoblana boshlandi. 1951 yilda Parijda Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiniig Milliy hisoblar tizimi standarti loyihasi qabul qilindi. Milliy hisoblar tizimi BMT tomonidan e'lon qilingan "Milliy hisoblar va yordamchi jadvallar tizimi" nomli hujjat asosida xalqaro statistikada standart tizim sifatida 1953-yildan boshlab qo'llanila boshlandi. 1953-yilda BMTning statistika komissiyasi tomonidan amaliyotga tadbiiq etish uchun Milliy hisoblar tizimining standarti qabul qilindi. Ushbu standartlar 1968, 1993 va 2008 yillarda yangilanib, takomillashtirildi. 1968-yil BMTning statistika komissiyasi 15 yillik tajriba asosida Milliy hisoblar tizimining yangi xalqaro standartini ishlab chiqdi va u 1993-yilning fevralga qadar qo'llanildi. 1993-yil fevralda BMT statistika komissiyasining navbatdagi sessiyasida Milliy hisoblar tizimining yangi xalqaro andozasi qabul qilindi, undagi yangiliklardan biri sifatida makroiqtisodiy statistikaning ko'rsatkichlari qatoriga to'lov balanslari, davlat budjeti ko'rsatkichlari kiritildi. Yevropa Ittifoqi 1995-yilda BMTning Milliy hisoblar tizimi andozasi asosida "Yevropa milliy hisoblar tizimi"ni qabul qildi. "MHT-2008" xalqaro standarti 2009-yilda BMT Statistika komissiyasining 40-sessiyasida qabul qilinib, ushbu qo'llanmada bir qator muhim iqtisodiy jarayonlarning statistik ko'rsatkichlarda ifodalash uslubiylati takomillashtirilgan Hozirgi zamon milliy hisobchiligi nazariy va amaliy jihatdan o'ta yuksak darajada rivojlangan hisobot tizimi bo'lib, mamlakatdagi va uning tarmoqlari va sektorlaridagi iqtisodiy va sotsial jarayonlarni to'la aks ettirishga qaratilgan. Bu tizimda qabul qilingan hisoblash usul va uslublari, tasniflar va tushunchalar boshqa hisobot (buxgalteriya, moliya, bank hisobotlari va boshqalar) va statistika tizimlari (moliya, bank, bojxona, baho va h.k. statistikasi) bilan uyg'unlashtirib tuzilgan. Hozirgi vaqtda amaliyotda ishlatilayotgan milliy hisobchilik tizimi "Milliy hisoblar tizimi" (MHT) deb nom olgan.

Bu tizim hozirgi vaqtda xalqaro standart sifatida er yuzining 160 dan ortiq mamlakatlar amaliyotida ishlatilyapti. Bu tizim, iqtisodiyoti bozor iqtisodiga asoslangan mamlakatlarda bo'layotgan iqtisodiy va sotsial jarayonlarni to'laonli aks ettirishga qaratilgan. MHTda mamlakatda bo'layotgan ishlab chiqarish, iste'mol, jamg'arish, investitsiya jarayonlari, mamlakatning moliyaviy holati va chet el bilan bo'lgan iqtisodiy hamkorligining natijalari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan schyotlarda ifodalanadi. Milliy hisoblar tizimi – iqtisodiy faoliyat natijalarini ifodalovchi hisoblar va jadvallarning muayyan to'plami shaklida tuzilgan, o'zaro bog'liq statistik ko'rsatkichlarni o'zida aks ettiradigan xalqaro uslubiya bo'lib, mamlakat ijtimoiy iqtisodiy hayotining barcha jabhalarini o'rganishga xizmat qiladi.

Milliy hisoblar tizimi – mamlakat iqtisodiy rivojlanishining xalqaro statistika amaliyotida qabul qilingan umumlashtiruvchi ko'rsatkichlari tizimidir. Shuningdek, Milliy hisoblar tizimi bozor munosabatlari sharoitida mamlakatlarning makrodarajadagi milliy mahsulotini va milliy daromadini hisoblash metodologiyasi hamdir. Milliy hisoblar tizimi - yaxlit jamlanma iqtisodiy statistik ko'rsatkichlar to'plami bo'lib, mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, natijada yalpi milliy daromadni yaratish, ularni taqsimlash, qayta taqsimlash va iste'mol jarayonlarini o'zida mujassamlashtirgan hisobot va statistika tizimidir. Ushbu tizimda ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish, iste'mol, investitsiya, jamg'arish jarayonlari ketma-ket "T" ko'rinishidagi "resurslar va ishlatilishi" jadvallarini tuzish orqali hisoblarda tasvirlanadi. MHT balans statistikasining rivojlanishi, milliy daromad, milliy boylik, jamg'arma kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlash ishlari evolyutsiyasining natijasidir. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, hisob va statistikani xalqaro andozalarga o'tkazishga kirishdi va shu maqsadda 1994-yilda "O'zbekistonda xalqaro amaliyotda qabul qilingan hisob va statistika tizimiga o'tish davlat dasturi" ishlab chiqildi va u bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. O'zbekiston milliy statistika amaliyotiga MHT xalqaro uslubiyaatini joriy qilish ishlari Vazirlar Mahkamasining 1994-yildagi 433-sonli qaroriga asosan boshlangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni, 2019 yil 9-apreldagi "Davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda 2020-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari MHTni statistika amaliyotiga keng joriy qilishni yanada jadallashtirishda huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. 2017-2022-yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan milliy hisoblar ko'rsatkichlarini hisoblash uslubiyaatlari "MHT 2008" xalqaro standarti qoidalariga muvofiqlashtirildi hamda ular asosida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. MHT, davlat moliyasi statistikasi va to'lov balansi ko'rsatkichlari o'zaro muvofiqlashtirildi. Bunda YaIM hisob-kitoblarini davlat moliyasi statistikasi va to'lov balansi ma'lumotlariga muvofiq ravishda amalga oshirish va qo'mitaning rasmiy veb-saytida e'lon qilib borish yo'lga qo'yildi. Ushbu hisob-kitoblar asosida YaIM va u bilan bog'liq makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning 2010-yildan yillik va 2017-yildan choraklik dinamik qatorlari shakllantirildi va e'lon qilina boshlandi. 2019-yil 19-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida milliy hisoblarning zamonaviy tizimini joriy etish to'g'risida"gi 691-sonli qarori qabul qilindi.

Unga ko'ra, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar qamrovining to'liqligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste'mol usulida hisoblash metodologiyasini takomillashtirishni nazarda tutuvchi milliy hisoblar zamonaviy tizimini 2020-yil 1-yanvardan boshlab bosqichma bosqich joriy etila boshlandi.

Milliy iqtisodiyotni tahlil qilishda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar. Bu ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi: 1. Yalpi ichki mahsulot (YaIM), Sof ichki mahsulot (SIM), Yalpi milliy daromad (YaMD), Sof milliy daromad (SMD), shaxsiy daromad (ShD), shaxsiy tasarrufidagi daromad (ShTD), iste'mol (C), jamg'arish (S) ko'rsatkichlarining hajmi va o'sish sur'atlari; 2. iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi; 3. mamlakat eksporti va importi hajmi, tarkibi, YaIMdagi ulushi va o'sish suratlari; 4. davlat budjeti taqchilligi, deflyator, iste'mol narxlar indeksi, inflyatsiyaning o'sish sur'atlari; 5. ishsizlik darajasi va ishsizlar soni, aholining ish bilan bandlik darajasi; 6. aholining moddiy ne'matlar va xizmatlar iste'moli hajmi, ularning jamg'armalari, ish haqining quyi miqdori va boshqalar. Davlat budjeti taqchilligi va inflyatsiya sur'ati kabi ko'rsatkichlar umumiy makroiqtisodiy vaziyatga baho berishda qo'llanilsa, YaIM, SIM, YaMD, SMD, ShD, ShTD, C, S ko'rsatkichlari milliy ishlab chiqarishning parametrlarini va dinamikasini tahlil etishda foydalaniladi. Bu ko'rsatkichlar iqtisodiyotning barcha subyektlari faoliyatlari natijasi sifatida aniqlanib, ularni hisoblashning asosini Milliy hisobchilik tizimi (MHT) tashkil etadi. MHT mamlakat buxgalteriyasi vazifasini o'tagani holda uning standartlaridan kelib chiqqan holda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash, mamlakatlararo taqqoslovlarni amalga oshirish imkonini beradi. YaMD - mamlakat rezidentlari tomonidan, mamlakatda va mamlakat tashqarisida, ishlab chiqarishda ishtirok etish va mulkdan olgan boshlang'ich daromadlari yig'indisidir. YaIM va YaMD ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqni quyidagi formula ko'rinishida tasavvur etish mumkin: $YaMD = YaIM + \text{mamlakat rezidentlari tomonidan xorijdan olingan daromadlari} - \text{norezidentlarning mamlakatdan xorijga jo'natgan daromadlari}$. YaIM va YaMDning prinsipial farqi shundaki, ulardan birinchisi mamlakat rezidentlari tomonidan ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlar hajmini o'lchasa, ikkinchisi ular olgan boshlang'ich daromadlarni o'lchaydi. Sof ichki mahsulot (SIM) va Sof milliy daromad (SMD) ko'rsatkichlari YaIM va YaMD ko'rsatkichlaridan amortizatsiya (iste'mol qilingan asosiy kapital) summasi miqdoriga farq qiladi. $SIM = YaIM - A$ $SMD = YaMD - A$ Makroiqtisodiy tahlilda shuningdek Milliy hisoblar tizimiga kirmagan Shaxsiy daromad (ShD) ko'rsatkichi ham qo'llaniladi. $ShD = SMD - [ISA \text{ (Ijtimoiy sug'urta ajratmalari)} + T \text{ (bilvosita soliqlar)} + (R1.1 - \text{korporatsiya foydasiga soliqlar}) + R1.3 - \text{Korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi} + \text{biznesning foiz daromadlari}] + \text{transfert to'lovlari (TR)} + \text{foizlar}$ ko'rinishida olingan shaxsiy daromad. Foizlar ko'rinishida aholi olgan daromadga davlat qarzlar bo'yicha olingan foiz daromadlari ham kiritiladi. Shaxsiy daromaddan aholi to'laydigan daromad solig'i, mulk solig'i va ayrim nosoliq to'lovlarni ayirib tashlab shaxsiy tasarrufdagi daromad (ShTD) ko'rsatkichi topiladi. ShTD uy xo'jaliklari tomonidan iste'mol (C) va jamg'arish (S) uchun ishlatiladi. $SHTD = C + S$ Makroiqtisodiy tahlilda uy xo'jaliklarining ShTD va Yalpi milliy tasarrufdagi daromad (YaMTD) ko'rsatkichlari o'zaro farqlanadi. $YaMTD = YaMD + \text{Xorijdan olingan sof transfertlar} - \text{Xorijdan olingan sof transfertlar} = \text{Mamlakat tashqarisidan olingan transfertlar} - \text{Mamlakatdan tashqariga berilgan transfertlar}$ Yalpi milliy tasarrufdagi daromad yakuniy iste'mol va milliy jamg'armish uchun ishlatiladi. $YaMTD = \text{Yakuniy iste'mol} + \text{Milliy jamg'armalar}$ Yakuniy iste'mol uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlaridan tashqari hukumatning iste'molga xarajatlarini ham o'z ichiga oladi.

Milliy iqtisodiyot rivojlanishi jarayonlarida turli makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasida ma'lum proporsiyalar yoki tenglik ta'minlanishi lozim. Proporsiya atamasi aynan tenglikni bildirmasdan bir butunga nisbatan uning bo'laklarining nisbatini, yoki shu bo'laklar o'rtasidagi nisbatni bildiradi. Bunga mavzuimizning YaMTD ning yakuniy iste'mol va milliy jamg'arishga bo'linishini misol qilib keltirish mumkin.

Odatda YaMTD hajmida yakuniy iste'mol hajmi yuqori bo'ladi. Ammo Xitoy Xalq Respublikasi misolida ko'rish mumkinki, milliy jamg'armalarning ulushi ham yuqori bo'lishi mumkin.

Qisqacha xulosalar; Mamlakatning makroiqtisodiy holati ko'rsatkichlar tizimi orqali baholanadi. Makroiqtisodiy tahlilda YaIM, YaMD, SIM, SMD, ShD, ShTD, YaMTD, C,S, INI, YaIM deflyatori kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi. YaIM – mamlakat rezidentlari tomonidan ma'lum muddat davomida ishlab chiqarilgan pirovard tovarlar va xizmatlar bozor baholarininng umumiy yig'indisidan iborat.

YaIMni hisoblashning ishlab chiqarish, yakuniy iste'mol va taqsimot usulari mavjud bo'lib, ulardan dastlabki ikki turi keng qo'llaniladi. YaIMni hisoblashda bir qiymatni ikki qayta hisoblashga yo'l qo'ymaslik uchun uni qo'shilgan qiymatlar yig'indisi ko'rinishida hisoblanadi. Bu usul YaIMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli deyiladi. YaIMni xarajatlar ko'rinishida to'rt guruhdagi xarajatlar – iste'mol, investitsiya, davlat xaridi va sof eksport xarajatlari yig'indisi orqali hisoblanadi.

Har uchala usulda hisoblangan YaIM ko'rsatkichi hajmi statistik xatolar istisno etilganda o'zaro teng bo'ladi. Milliy hisobchilik tizimining barcha ko'rsatkichlarini hisoblashning uslubiy bazasi bitta bo'lgani uchun ularni o'zaro taqqoslash imkoni mavjud. Makroiqtisodiy tahlilda YaIM ko'rsatkichi bilan birga YaMD ko'rsatkichidan ham foydalaniladi. YaMD – mamlakat rezidentlari tomonidan, mamlakatda va mamlakat tashqarisida, ishlab chiqarishda ishtirok etish va mulkdan olgan boshlang'ich daromadlari yig'indisidir. Soddalik uchun YaIM yalpi ishlab chiqarish, YaMD esa yalpi daromad deb ham yuritiladi.

Nominal YaIM yakuniy tovarlar va xizmatlar hajmini joriy narxlarda, real YaIM esa doimiy narxlarda baholaydi. Shunday qilib, real YaIM hajmi faqatgina ishlab chiqarish hajmi o'sishi bilan oshadi, nominal YaIM esa tovar va xizmatlar baho darajasining o'sishi natijasida ham oshishi mumkin. Milliy ishlab chiqarish va daromad hajmining real o'zgarishini aniqlash uchun baholar indekslaridan: YaIM deflyatori va INI ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, A., Tursunov, B. (2020). Milliy hisoblar tizimi. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya nashriyoti.
2. Qodirov, M. M., Tadjibayeva, Z. Sh. (2019). Makroiqtisodiyot nazariyasi. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
3. Jahon banki. (2023). World Development Indicators. <https://data.worldbank.org>
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi. (2024). Yillik statistik to'plam. <https://stat.uz>
5. United Nations. (2008). System of National Accounts 2008 (SNA 2008). New York: United Nations, European Commission, IMF, OECD, World Bank.
6. Mankiw, N. G. (2020). Makroiqtisodiyot: Asosiy tushunchalar (Tarjima). Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti.

7. Mishkin, F. S. (2019). Iqtisodiyot nazariyasi: Puling va moliya siyosati aspektlari. Boston: Pearson Education.
8. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi materiallari (2023). <https://www.mf.uz>